XALQ DEPUTATLARI MUZRABOT TUMANI KENGASHINING QARORI

Muzrabot tumani, Onadiyor ko‘chasi 1-uy. 191300, tel.: (+99876) 349-10-67

2023 - yil 30 - noyabr VI-66-190-8-115-K/23 Muzrabot tuman hokimligi

Muzrabot tumani mahalliy byudjetining 2023-yil III chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi hisobidagi mablag‘larini maqsadli ishlatilishi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2022-yil 30-dekabrdagi 813-sonli Qonuniga muvofiq tuman byudjetining 2023-yil III chorak daromadlar prognozining oshirib bajarilgan qismi mablag‘larini tuman byudjetining 2023-yilgi byudjet parametrlarida ko‘zda tutilgan xarajatlariga, jumladan, birinchi navbatdagi zarur yo‘nalishlarga ajratilishini ta’minlash maqsadida tuman hokimligi iqtisodoyot va moliya bo‘limi mudirining hisobotini inobatga olib, xalq deputatlari Muzrabot tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2022-yil 30-dekabrdagi 813-son Qonuniga muvofiq mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish tartibi belgilab qo‘yilganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman byudjetining joriy yil III chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi **1355,0 million so‘m**ni tashkil etganligi hamda ushbu mablag‘lar hisobidan mablag‘ ajratish yuzasidan kiritilgan takliflar doirasida yo‘naltirilgan mablag‘lar to‘g‘risida tuman hokimligi iqtisodoyot va moliya bo‘limi mudirining hisoboti tasdiqlansin.

3. Tuman byudjetining joriy yil III chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi xisobidan quyidagi maqsadlarga yo‘naltirilsin:

Tuman hokimligi xarajatlari uchun:

- tuman hokimligi balansidagi xizmat avtomashinalariga ehtiyot qismlari xarid qilish xarajatlari uchun **25,0 million so‘m**;

- tuman hokimligi balansidagi xizmat avtomashinalarining yoqilg‘i xarajatlari uchun **20,0 million so‘m**;

- tumandagi bayram va boshqa tadbirlarni o‘tkazishda beriladigan estalik sovg‘alar olish xarajatlari uchun **73,8 million so‘m**;

- tumandagi hokim yordamchilariga olib berilgan kompyuter jamlanmasidan sud qarori orqali vujudga kelgan qarzdorliklarni qoplash uchun **118,2 million so‘m**;

- tuman hokimligi tashkiliy kadrlar guruhi xodimlarini rag‘batlantirish xarajatlari uchun **18.0 million so‘m;**

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Muzrabot tumanidagi xalq qabulxonasi xizmat avtomashinasiga ehtiyot qismlari xarid qilish xarajatlari uchun **3,0 million so‘m** mablag‘ ajratilsin.

Tuman hokimligi iqtisodoyot va moliya bo‘limi mudiri (I.Kushakov) hamda tuman G‘aznachilik bo‘linmasi boshlig‘i (A.Xudoynazarov) ga:

- tuman hokimligi e-qaror xizmati xarajatlari uchun **9.0 million so‘m;**

- tuman hokimligining internet xizmatlari uchun **90,0 million so‘m;**

- tuman hokimligining foydalanilgan elektr energiya xizmati xarajatlari uchun **50,0 million so‘m;**

- tuman hokimligiga yangi olingan xizmat avtomashinasini rasmiylashtirish xarajatlari uchun **7,0 million so‘m**;

- tuman hokimligi pochta xizmati xarajatlari uchun **10,0 million so‘m, Jami 199,0 million** so‘m mablag‘larni yuqorida ko‘rsatilgan yo‘nalishlar bo‘yicha tuman hokimligining mavjud qarzdorliklarini qoplash uchun xalq deputatlari Muzrabot tumani Kengashi kotibiyatining hisob raqamiga yo‘naltirish vazifasi yuklatilsin.

Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish tuman bo‘limi

xarajatlari uchun:

- “MFY xodimlarini rag‘batlantirish” jamg‘armasiga **10,0 million so‘m** mablag‘ ajratilsin.

Xalq deputatlari tuman Kengashi kotobiyati xarajatlari uchun:

- xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati xodimlariga har oylik ustama haq to‘lovlari xarajatlari uchun **8.0 million so‘m** ajratilsin.

- tuman “Yoshlar daftari” jamg‘armasiga **203,0 million so‘m**, “Ayollar daftari” jamg‘armasiga **203,0 million so‘m**, “O‘zbekiston kasaba uyushmalari federasiyasi” jamg‘armasiga **40,0 million so‘m**, “Ekalogiya, atrof-muhit” jamg‘armasiga **10,0 million so‘m**, “Snos” jamg‘armasiga **50,0 million so‘m,** jami bo‘lib **506,0 million so‘m** ajratilsin.

- tumanda jamoatchilik fikriga asosan ("Open budget" tizimi 30%) tuman mahalliy byudjeti rejasidan ortig‘i bilan bajarilgan qismidan sarflanadigan mablag‘lar uchun **407,0 million so‘m** ajratilsin.

4. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi mudiri (I.Kushakov), tuman G‘aznachilik bo‘linmasi boshlig‘i (A.Xudoynazarov), tuman hokimligi bosh xisobchisi (Sh.Choriyev), tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (Sh.Norqobilov) va xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati xisobchisi (B.Xoliqov)larga ajratilgan mablag‘larni belgilangan tartibda to‘lovlarni amalga oshirish hamda qonunchilikda o‘rnatilgan tartibda samarali va maqsadli sarflanishini ta’minlasin.

5. “Muzrabot” gazetasi tahririyati (A.Yo‘ldashev)ga ushbu qarorni matbuotda yoritish tavsiya etilsin.

6. Yuqorida belgilangan vazifalar ijrosi ta’minlanganligi yuzasidan tumandagi mutasaddi tashkilotlar rahbarlariga xalq deputatlari tuman Kengashiga har chorak yakuni bo‘yicha yozma axborot berib borish vazifasi yuklatilsin.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Muzrabot tumani Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (L.Musayev) zimmasiga yuklatilsin.

8. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi **A.Ismailov**